



Yevropa Ittifoqi tomonidan
moliyalashtirilgan

YUKSALISH

YURIST-TAHLILCHI UCHUN TEXNIK TOPSHIRIQ

LOYIHA HAQIDA MA'LUMOT

“Yuksalish” harakati tomonidan Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko‘magida **“Mediata’lim va faktlarni tekshirish: tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini rivojlantirish”** mavzusida “Mediamaktab” o‘tkazish rejalashtirilgan bo‘lib, u quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- ☐ Media savodxonligi va tanqidiy fikrlash;
- ☐ Faktlar va manbalarni tekshirish;
- ☐ Ommaviy axborot vositalarida etika va kasb mas'uliyati;
- ☐ Milliy ommaviy axborot vositalarida dezinformatsiyaga yo‘l qo‘yish xavfi nuqtayi nazaridan normativ-huquqiy bazani tahlil qilish.

Mediata’lim va faktcheking sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan Yevropa Ittifoqining professional trener-jurnalist jalb etiladi.

Maqsad:

OAV vakillari va blogerlar o‘rtasida tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi darajasi va mediata’lim sohasida kasbiy mahoratni oshirish.

Vazifalar:

1. Ishtirokchilarda mediata'lim sohasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish;
2. Blogerlar va OAV vakillarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va faktlarni tekshirish ko'nikmalarini oshirish;
3. Noto'g'ri ma'lumotni aniqlash va OAVning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini tushunish uchun mustahkam asosni ishlab chiqish;
4. Mediaekspertlari va OAV vakillari o'rtasida Yevropa Ittifoqi ekspertlari bilan tajriba almashish imkoniyatini yaratish.

Maqsadli guruh:

Yosh jurnalistlar, ixtisoslashgan fakultet talabalari, blogerlar va raqamli platformalar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirishga intilayotgan OAV xodimlari.

Kutilayotgan natijalar:

1. Ishtirokchilar faktlarni tekshirishning asosiy usullarini va kundalik faoliyatida qo'llaniladigan mediata'lim tamoyillarini o'zlashtiradilar;
2. Ishtirokchilar kasbiy malakalarini oshiradilar, sifatli va ijtimoiy mas'uliyatli materiallar yaratishga tayyor bo'ladilar;
3. Hamfikrlar hamjamiyatiga kirish va kelajakda karyerada o'sish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

4. Mahalliy OAV va Yevropa Ittifoqi mutaxassisleri o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatiladi.

“Mediamaktab” yakunlangach, ishtirokchilarning maqolalarini (tanlov asosida) chop etish va “Milliy ommaviy axborot vositalarida dezinformatsiyaga yo'l qo'yish xavfi nuqtayi nazaridan normativ-huquqiy bazani tahlil qilish” mavzusida tahliliy tadqiqot o'tkazish rejalashtirilgan. Tadqiqot maktab bitiruvchilari va taklif etilgan ekspertlar, jumladan, jurnalistlar, faktcheking bo'yicha mutaxassislar va huquqshunoslar bilan birgalikda olib boriladi.

VAZIFALAR

1. Quyidagi asosiy savollarga javob beradigan keng qamrovli tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilishi lozim:

1. O'zbekistonda mediakontent qanday qonunlar bilan tartibga solinadi va O'zbekiston ommaviy axborot vositalari sohasida qanday xalqaro shartnomalar yoki bitimlarni imzolagan?

- OAV faoliyatini nazorat qiluvchi amaldagi qonun hujjatlari, jumladan, OAV, so'z erkinligi va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlarni o'rganish.

2. Yolg'on ma'lumotni aniqlashning qanday mexanizmlari mavjud?

- Dezinformatsiya sifatida tasniflanishi mumkin bo'lgan kontentni aniqlash mexanizmlari va ularning samaradorligini ko'rib chiqish.

3. Yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish uchun qanday choralar ko'rilmogda?

- Zararli bo'lishi mumkin bo'lgan axborot tarqalishining oldini olish bo'yicha davlat va mustaqil tuzilmalar darajasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahlili.

4. Dezinformatsiya tarqatgan OAV uchun qanday huquqiy choralar bor va ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiyaga qarshi kurash bo'yicha majburiyatlar ko'zda tutilganmi?

- Salbiy informatsion ta'sir ko'rsatish sohasida qonunchilikni buzuvchi OAV uchun mavjud sanksiya va javobgarliklarni tadqiq etish.

5. Qonunchilik milliy axborot makonlarini himoya qilishga qanday yordam beradi?

- Amaldagi qonunchilikni tashqi manfaatlar ta'siridan himoyalangan barqaror va xavfsiz axborot makonini yaratishga qay darajada yordam berishini baholash.

6. Internet-provayderlar tashviqot mazmunini kuzatish va blokirovka qilishda qanday majburiyatlarga ega?

7. Qonunchilikda takomillashtirish yoki aniqlik kiritishni talab qiluvchi bo'shliqlar bormi?

- Qonunchilikda dezinformatsiyaga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan har qanday kamchilik yoki noaniqliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

8. Qanday xalqaro amaliyot yoki keyslarni O'zbekistonda joriy qilish uchun muvofiqlashtirish mumkin (xalqaro tajriba)?

9. Dezinformatsiyaga kurashishni kuchaytirish uchun qanday huquqiy va institutsional o'zgarishlar kerak? (xulosa va tavsiyalarda).

2. Tahlil asosida hisobot tayorlash;

3. Seminarda asosiy natijalar va xulosalar taqdimotini o'tkazish.

4. Maktabda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili sessiyasida trener sifatida ishtirok etish.

Maktab ishtirokchilari uchun huquqiy hujjatlar tahlili mavzusida o'quv mashg'ulotini tayyorlash va o'tkazish.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishning asosiy tushunchalari, usullari va vositalarini taqdim etish.

Ishtirokchilar bilan interaktiv muloqotni, jumladan, muhokamalar, amaliy mashqlar va savollarga javob berish.

Sinov yoki boshqa fikr-mulohaza shakllaridan foydalangan holda sessiya oldidan va keyin ishtirokchilarning bilim darajasini baholash.

O'TKAZILISH JOYI

Toshkent shahri

FAOLIYAT DAVOMIYLIGI

2025-yil, yanvar-may

AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR VA MUDDATLAR:

No	Faoliyat	Muddati
1	Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish	10 ish kuni
2	O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar tahlilini o'tkazish	30 ish kuni
3	Maktabni o'tkazish uchun 1 sessiya materialini tayyorlash	10 ish kuni
4	Mediamaktabda ishtirok etish va normativ-huquqiy hujjatlar tahlilini o'tkazish bo'yicha 1 ta sessiya o'tkazish	1 ish kuni
5	Tahliliy hisobot va tadqiqot xulosasini tayyorlash	20 ish kuni
6	Tadqiqotning asosiy natijalari va xulosalarini Toshkent shahrida bo'lib o'tgan seminarda taqdim etish	2 ish kuni
7	Bajarilgan ishlar bo'yicha qisqacha tavsifiy hisobotni taqdim etish	2 ish kuni
	Jami	75 ish kuni

TALAB QILINADIGAN MAHORAT VA MALAKALAR

Nomzodlar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish uchun tegishli tajribaga egaligi, shuningdek, quyidagi malaka, ko'nikma va malakalar asosida baholanadi:

- Oliy yuridik ma'lumot;
- Faktlarni tekshirish tajribasi;
- Tadqiqot metodologiyasini ifodalash qobiliyati, ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha keng tajriba va hujjatlashtirish ko'nikmalari;
- O'zbek va rus tillarida aniq, to'g'ri va asoslantirilgan tahliliy matnlar tuza olish;

- Jamoada ishlash qobiliyati;
- O'zbek va rus tillarini yaxshi bilish.

TAQDIM QILINISHI KERAK BO'LGAN HUJJATLAR

- Rezyume;
- Moliyaviy taklif (har bir ish bo'yicha to'lov alohida, so'mda ko'rsatilishi lozim).